

MIRZO KENJABEK G‘AZALLARI BADIYYATI

Shahrizoda Shog‘dorova

Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: maqolada Sharq mumtoz she‘riyatining yetakchi janrlaridan biri bo‘lgan g‘azalning poetik xususiyatlari hamda zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi taraqqiyoti yoritilgan. Unda Mirzo Kenjabek g‘azallarining mavzu va g‘oya ko‘lami, ishq falsafasi, tasavvufiy ramzlari, ruhiy kechinmalari hamda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mumtoz lirika, ishq falsafasi, tasavvufiy ramz, badiiy san‘at, tazod, isti‘ora, metafora, ramziy obraz, poetik tafakkur.

Sharq adabiyotining eng nozik va go‘zal janrlaridan biri g‘azal bo‘lib, unda inson qalbining eng chuqur kechinmalari, muhabbat, sadoqat, ayriliq, ilohiy ishq va hayot falsafasi badiiy ifodasini topadi.

G‘azal (arab.ayollarga sevgi va munosabat izhor qilish) asosan ishq-muhabbatni kuylovchi, sevgi kabi juda ham qadimiy va doimiy bo‘lgan lirik she‘rdir. Buyuk ijodkor Mavlono Fuzuliy tabiricha “Shoir qudratini bildiruvchi, hunarning guli-gulistoni”dir.

Mavlono Vohid Abdulla nazdida esa “Qalb qonidan ochilgan lola”dir deb ta‘rif beradilar [1]. Albatta, bu bejizga emas, negaki, har bir g‘azal so‘zlari ijodkorning qalbidan nido misoli chiqib keladi. G‘azalda har bir so‘z oddiy ma’noda cheklanib qolmaydi, balki u timsolga, ramzga aylanadi. Har bir bayt mustaqil ma’noga ega bo‘lsada, butun g‘azal ruhiy uyg‘unlikda, badiiy yaxlitlikda bo‘ladi. G‘azal bu oddiy she‘r emas, balkim, ruhning nidosidir. Bu janr tasviriylilik va badiiylilik jihatdan nihoyatda boydir. G‘azallar dastlab ishqiy mavzularda yozilgan bo‘lsada, keyinchalik uning mavzu doirasi kengayib bordi hamda ijtimoiy-siyosiy, pandnasihat, falsafiy-axloqiy va hajviy kabi turlari vujudga keldi. G‘azallar tuzilishiga ko‘ra parokanda, yakpora, mustaqil va voqeabandlarga bo‘linadi. Uning eng asosiy belgilari biri-musiqiyligidir. Vaznning jarangdorligi, qofiya-radif uyg‘unligi, fonetik takrorlik va so‘z ohangining mayinligi

barchasi uni qo'shiqdek jarangdor qiladi. Ma'no jihatidan esa orifona, oshiqona va rindona g'azallarga bo'linadi. XV asrdan g'azal o'zbek she'riyatida asosiy va yetakchi janrga aylanadi. Alisher Navoiy o'zbek tilida 2600 dan ortiq g'azallar yaratadi. Unda realistik g'oyalarni kuchaytiradi. Keyinchalik zamonaviy o'zbek she'riyatida ham bu janrga qo'l urgan ijodkorlar anchagina. G'afur G'ulom, Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, Erkin Vohidov, Jamol Kamol va boshqalar yangicha sharoitda davom ettirdilar. Uning mavzu doirasini boyitdilar va an'anaviy ishq oshqlik doirasini ham bir qancha badiiy g'azallar yaratdilar. O'zbek zamonaviy mumtoz she'riyatining rivojiga o'zining katta hissalarini qo'shgan shoirlardan biri-Mirzo Kenjabek ijodi alohida o'ringa ega. Shoir zamonaviy adabiyotda sharq lirikasi ruhini saqlagan holda, ayni paytda ularni yangicha talqin etganlar. Uning g'azallari Alisher Navoiy, Bobur, Fuzuliylar an'analarini davom ettiradi. Ijodida g'azal janriga alohida e'tibor qaratadi. Shoir lirikasining tub mohiyati-inson qalbi, muhabbatning ma'naviy mohiyati, vafodorlik, ishqning pokligi, hayotning falsafiy mazmunini badiiy talqin qilishdan iborat. Shoir g'azallarida badiiy tasvir vositalari-tashbeh, tazod, isti'ora, talmeh kabi san'atlardan mahorat bilan foydalanadi. Ijodkor g'azallarida badiiy obrazlar tizimi juda yorqin namoyon bo'ladi. "Yor" jismoniy go'zallik emas, balki ruhiy mukammallik, ma'naviy poklik ramzidir. Uning ko'zlari, nigohi, qadami - oshiqqa yo'l ko'rsatuvchi nur talqin qilinadi. Bu san'atlar takrorlanmaydi, balki ularni yangi mazmun bilan boyitadi. Bunga misol qilib shoirning "Ey, jon, nechun, yonursen?." nomli g'azali yaqqol misoldir.

Bag'ri butun malakning bu tunda xob ichinda,

Ey, jon, nechun yonursen iztirob ichinda?! [2]

Shoir tasvirlayotgan holatda tashqi olam tinch, farishtalar osoyishtalikda, bu tunda hamma sokin uyquda, ammo shoir ichki olami esa negadir notinch, ruhida qandaydir yonish bor. Bu bilan u o'ziga nido qilyapti. "Bag'ri butun malak" va "yonursen iztirob ichinda" misralarida tazod san'atini namoyon qiladi. Mana shu misralar ichida turfa xil ma'nolarni anglash mumkin.

Gul ko'zida o'zimni ko'rdimman-o, yonurmen

Hanuz bu tun ichida-bu oftob ichinda.

Sharq she'riyatida gul obraziga alohida e'tibor beriladi, u sevimli

yor,go‘zallik,noziklik timsolidir. Bu baytda ham oshiq yorning ko‘ziga qarab, o‘zini ko‘radi. Oshiq o‘zini ko‘rgandan so‘ng,ishq yo‘lida tun-u kun yonadi. Badiiy san’atlardan ham mahorat bilan foidalanadi. Tun-kun,yorug‘lik-qorong‘ulik,ko‘rmoq-yonmoq so‘zlari orqali tazod san’atini namoyish qiladi. Gul ko‘zi va yonish so‘zlari orqali isti’ora san’ati ko‘rsatiladi.

*Sekin-sekin suzardim suvdan so‘rab saodat,
Qalqa-qalqa qayig‘im qolmish sarob ichida.*

Bu baytda ham ramzlarga alohida urg‘u beradi. Suv bilamizki,doimgidek hayot, poklik ramzi hisoblanadi. Ijodkor “saodatni suvdan so‘rab” demoqlik bilan baxtni izlash,hayotdan najot kutish g‘oyasini beradi. Ikkinchi misrada esa, “qayiq”ramzi orqali bir inson hayoti, “qalqa-qalqa” so‘zlari orqali inson hayoti davomida qilga xato-kamchiliklari haqida so‘zlaydi. Qayiqning suv emas, sarobda qolishi-insonni intiqib kutgan baxti aslida ko‘ziga ko‘ringan ro‘yo bo‘lganini bildiradi.

*Ey do‘st, birodaringman, madad beray deganlar,
Netay raqib ekanlar asli niqob ichinda.*

Baytda shoir insonning haqiqiy tabiatini yashirishi,nimani aytib, biror narsani sir tutishi haqida gapiradi. U uchun do‘st bo‘lib ko‘ringan, “madad beraman” deb va‘da bergan soxta do‘stlarning asl yuzlarini ochganliklaridan shikoyat qiladi. Baytni badiiy tahlil qiladigan bo‘lsak, do‘st va raqb so‘zlari orqali antetiza holati yuzaga keladi. Ya’ni tashqi ko‘rinish va uning ichki dunyosi o‘rtasidagi farq ochib berilgan. “Niqob ichinda” jumlasini orqali esa metafora ma’no ko‘chishi ko‘rsatib beriladi.

*Ey do‘stlar-o,bu dardim oshkor e‘tib netardim,
Netarman,ul samarasiz qolsa kitob ichinda.*

Shoir do‘stlariga murojaat qiladi: “Dardimni aytib nima qilardim? Baribir u kitob ichinda qolib,hech qanday samara bermasa”, g‘oyasini ilgari suradi. Shoirning tinglovchisiz dard, ko‘ngilsiz kitob, samara bermagan so‘zdan iztirob chekadi. Mirzo Kenjabek g‘azallari-o‘zbek mumtoz lirikasining zamonaviy davrdagi eng nazokatli namunalari bo‘lib, ularning badiiyati tasavvufiy ramzlar, ishq falsafasi,nafis musiqiylik, teran ruhiy holatlar tasviri bilan belgilanadi. Shoir an’anaviy g‘azal maktabini davom ettirgan holda,unga yangi ruh,zamonaviylik,shaxsiy kechinma va badiiy yangilik olib kirgan. Ijodkor g‘azallarida insonni pok muhabbat, vafodorlik, sabr-matонат, sadoqat

kabi fazilatlarga yetaklaydi. Shu sababli uning gʻazallari nafaqat estetik zavq uygʻotadi, balki did tarbiyasiga, ruhiy-maʼnaviy kamolotga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Umirov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: Xalq merosi, 2004. – B. 230.
2. Kenjabekov M. Munojot: Sheʼrlar va doston. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1986. – B.5.
3. Xodi oʻgʻli, M. I. (2025, October). SAIDBEK HASANOV TAHLILIDA OʻZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING ZAMONAVIY TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 360-363).
4. Suleymanova, S. A. (2024). Artisticity in the story genre. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(9), 63-68.
5. Ibragimova, D. I. (2024). AN ANALYSIS OF ISAJON SULTON'S HISTORICAL PROSE: ERA, HEROES, THEMES, AND IDEAS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 120-127.
6. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz sheʼriyatda Bobur gʻazallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
7. Lola, S. (2021). Role of Myth and Legends in the Prose of Erkin Samandar. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(4), 49-58.
8. Abdullayeva, O. O. Q., & Abdullayeva, M. O. Q. (2021). QALBGA YAQIN SATRLAR. *Scientific progress*, 2(3), 138-142.